

O'ZBEKISTONDA AYOLLARGA TADBIRKORLIK QILISHLARI UCHUN

BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR

G'aybullayeva Farzona Xolboyevna

Guliston Davlat universiteti “Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar” fakulteti

Bank ishi yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14937672>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda tadbirkor ayollarga berilayotgan imkoniyatlar; ularga ajaratilayotgan subsidiyalar va jamiyat rivojlanishida xususan iqtisodiyotning o'sishida ham muhim ahamiyatga egaliklari haqida to'xtalib o'tilgan.

Tadbirkor ayollar o'z bizneslarini yuritibgina qolmay ishsiz ayollarni ish bilan tamilab, yangi ish o'rinalarini ham yaratadilar. Mamlakatimizda ayollarni qo'llab quvvatlash va tadbirkorlik turlarini ko'paytirish birinchi o'rindagi masala hisoblandi. Shu bilan birga tadbirkor ayollar gender tengligini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kash etishiga alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Tadbirkor, iqtisodiy rivojlanish, biznes, gender tengligi, daromad, imkoniyat, kapital. Ishsizlik.

OPPORTUNITIES FOR WOMEN TO DO BUSINESS IN UZBEKISTAN

Abstract. This article discusses the opportunities provided to women entrepreneurs in Uzbekistan, the subsidies allocated to them, and their importance in the development of society, especially in economic growth.

Women entrepreneurs not only run their own businesses, but also employ unemployed women and create new jobs. Supporting women and increasing the number of types of entrepreneurship in our country was considered a priority. At the same time, special attention was paid to the important role of women entrepreneurs in developing gender equality.

Keywords: Entrepreneur, economic development, business, gender equality, income, opportunity, capital. Unemployment.

ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ ЖЕНЩИН НАЧАТЬ БИЗНЕС В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье рассматриваются возможности, предоставляемые женщинам-предпринимателям в Узбекистане, выделяемые им субсидии и их значение в развитии общества, особенно в экономическом росте.

Женщины-предприниматели не только управляют собственным бизнесом, но и создают новые рабочие места, трудоустраивая безработных женщин. Поддержка

женичин и развитие предпринимательства в нашей стране считались главным приоритетом. При этом особое внимание было уделено важной роли женщин-предпринимателей в продвижении гендерного равенства.

Ключевые слова: Предприниматель, экономическое развитие, бизнес, гендерное равенство, доход, возможности, капитал. Безработица.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ayollarning tadbirkorlik faoliyatidagi ishtiroki jahon miqyosida katta o‘rin tutadi. Tadbirkor ayollar jamiyat rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ular nafaqat iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘sadi, balki ijtimoiy taraqqiyotga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ular o‘z bizneslarini yuritibgina qolmasdan, balki ijtimoiy muammolarni hal qilish, yosh avlodga motivatsiya berish, ishsizlikni kamaytirish va gender tengligini rivojlantirishda ham faol ishtirok etadilar. Tadbirkor ayollar yangi ish o‘rinlarini yaratib bandlik darajasini oshiradilar va bu qanchadan qancha ishsiz ayollarning ish bilan taminlanishiga sabab bo’ladi. Ularning bizneslari kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mahalliy va xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulot va xizmatlar taqdim etadi. Tadbirkor ayollar oilaviy hayotva biznesni muvozanatda ushlab, jamiyatda mustahkam oilalar shakllanishiga hissa qo‘sadi. Ular an’anaviy qadriyatlarni saqlagan holda, zamonaviy biznes yuritishadilar. Ayollar biznesga kirib kelishi jamiyatda gender tengligi va iqtisodiy mustaqillikni oshiradi. Ular o‘z muvaffaqiyati orqali boshqa ayollarni ham tadbirkorlikka undaydi. Ayol tadbirkorlar ko‘pincha xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Xotin-qizlar nafaqat katta korxonaga rahbarlik qilish, balki o‘zini o‘zi band qilish orqali ham tadbirkorga aylanishi mumkin. Shuningdek hozirgi kunda o‘zini o‘zi band qilish mehnat shartnomasisiz daromad topishning keng tarqalgan shakllaridan biri sanaladi. U qator xalqaro ma’lumotlar bazalarida tadbirkorlik ko‘rsatkichi sifatida to‘liq tan olinadi va ba’zi mamlakatlarda yolg‘iz tadbirkor (Sole proprietors) deb ko‘rsatiladi. Hozirgi kunda juda ko‘plab ayollar ishsizlikdan muammolarga duch kelishmoqda va buni oldini olishda ayollarga ko‘plab shart sharoitlar yaratilmoqda. Aslida ayollar tabiatan yaxshigina tadbirkor bo‘ladi. Buni ularning oila byudjetini to‘g‘ri taqsimlashi, tejab ishlatishi, shaxsiy ishlarini doim aniq rejalashtira olishi va hokazolarda ko‘rish mumkin. Shuning uchun ayollar tadbirkorligining aksariyati muvaffaqiyatli amalga oshmoqda. Yurtimizda qaysi tarmoq bo‘lmisin, unda dadil ish boshlab, o‘z biznesini tashkil etayotgan xotin-qizlar safi yil sayin kengayib boryapti.

Bu ushbu yo‘nalishga berilayotgan keng imkoniyatlar, ajratilayotgan katta mablag‘lar, muhimi, ayollarga bildirilayotgan ulkan ishonch mahsuli, deyish mumkin. Ana shu imkoniyatlardan bugun yuzlab, minglab xotin-qiz samarali foydalanib, kasb va ishbilarmonlikni puxta o‘rganyapti, tadbirkorlikni boshlab, o‘zi, oilasi, qolaversa, hududidagi ayollar bandligini ta’minlamoqda. Shuningdek mamlakatimizda ayol qadrini yuksaltirish borasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda va bu albatta huquqiy asoslar va muntazam takomillashtirilib borilayotganligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar» deb belgilanganligi mamlakatimizda gender tenglikni ta’minalash, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini oshirish borasidagi tizimli islohotlar uchun bosh huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Tadbirkor ayollarning faoliyati natijasida nafaqat o‘z oilalari balki butun jamiyat jamiyat foyda ko‘radi.¹

Tadbirkor ayollarni qo‘llab quvvatlash maqsadida davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan turli imkoniyatlar va qulayliklar yaratilmoqda. Bu imkoniyatlar ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish, biznes yuritishda ularni qo‘llab-quvvatlash va jamiyatda ularning rolini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek muhtaram prezidentimiz qarorlariga muvofiq ayollar uchun moliyaviy yordam va imtiyozli kreditlar, davlat grantlari va subsidiyalar, xalqaro moliyaviy dasturlar ajratilgan. Shuningdek tadbirkor ayollar uchun past foizli yoki uzoq muddatli kreditlar ajratildi. Ayollar biznesini qo‘llab quvvatlash maqsadida davlat tomonidan grantlar ajratiladi. Jahon banki Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar ayollarning tadbirkorlik qilishlariga imkoniyatlar va ularning biznesini rivojlantirish uchun mablag‘ ajratadi.

Mamlakatimizda tadbirkor ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish, resurslar va sarmoyalarni teng taqsimlash borasida bir qator islohotlar va tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

Davlat dasturlari va loyihalari tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan xotin-qizlarni yetarli kapital va investisiyalar bilan ta’minalashga qaratilgan. Xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagি PF-87son qaroriga asosan tadbirkor ayollarga ajratiladigan subsidiyalar miqdorini 7 million so‘mdan 10 million so‘mgacha oshirish ko‘zda tutilgan. Ushbu subsidiya biznesni boshlash va biznes yuritish uchun zarur bo‘lgan asbob-uskunalar va asboblarni sotib olish uchun beriladi.

¹ Lex.uz

Prezidentimizning doimo ayollarni qo'llab quvvatlash, ularga har tomonlama ko'mak berishga qaratilgan tashubbuslar minglab xotin-qizlarning qalbida ishonch, shijoat va minnatdorchilik tuyg'ularini uyg'otmoqda.

Shuningdek tadbirkor ayollar uchun ijtimoiy tarmoqlarda hamda ko'rgazmalar, biznes forumlari va hamkorlik tarmoqlarida ham o'z bizneslarini yuritishlarida keng imkoniyatlар ham mavjud. Instagram, Facebook, Telegram va TikTok kabi ijtimoiy tarmoqlar orqali mahsulot va xizmatlarini targ'ib qilish va raqamli marketing bo'yicha bepul kurslar mavjud. Tadbirkor ayollar o'z mahsulot va xizmatlarini keng targ'ib qilish uchun turli ko'rgazma va forumlarda ishtirok etishi mumkin. Ayollar biznesiga bag'ishlangan maxsus konferensiylar hamda investorlar va hamkorlar bilan uchrashish uchun imkoniyatlari mavjud. Ularni rag'batlantirishda mukofotlar va tanlovlар tashkil qilinyapti. Ushbu imkoniyatlardan unumli va to'g'ri foydalanish orqali ayollar nafaqat o'z biznesini rivojlantiradi, balki taraqqiyotiga ham katta hissa qo'shamdi. Shu sababli tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash davom ettirilishi va yanada kengaytirilishi lozim. Xususan, o'tgan ikki yil 20 avgust "Tadbirkorlar kuni" arafasida jamiyat hayotida o'zining munosib o'rniiga ega bo'lgan va biznes sohasida yuqori natijalarga erishgan 13 nafar xotin-qizlar turli darajadagi davlat mukofotlari bilan, shuningdek 30 nafari "Faol tadbirkor" ko'krak nishonlari bilan taqdirlandi.

Mazkur tadbir O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23 sentyabrdagi "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-330-sonli qarori ijrosini ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini kasbga hamda tadbirkorlikka jalb qilishda Hukumatimiz bilan hamkorlikda muayyan ishlar olib borayotgan tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etildi.

Ayollar uchun tadbirkorlikning juda ko'p turlari mavjud. Ular o'zlarining qiziqishlari, malakalari va bozor talablariga qarab turli sohalarda biznes boshlashlari mumkin. Quyida ayollar uchun mos bo'lgan tadbirkorlik turlarini ko'rib o'tamiz. Bular:

Go'zalllik va
parvarish
xizmatlari

Tikuvchilik va
moda


Oziq-ovqat
biznesi

Ta'lif va
kurslar

Internet-savdo
va tijorat

1-rasm. Bugungi kunda O‘zbekistonda ayollar egallayotgan kasb turlari

Xususan ayollarga berilayotgan imkoniyatlar natijasidan shuni aytishimiz kerakki ulardan biri: Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanidagi “RUNAMTEK” korxonasining rahbari Mahfuza Gyumyush ham hozirda tikuvchilik korxonasida bir qancha ayollarni ish bilan taminlaydi. Bu korxona ishga tushirish arafasida Rossiya Fedaratsiyasi bilan qiymati besh ming dollarga teng bo‘lgan shartnoma imzolangan va bu shartnomani muddatidan oldin bajarilgan. Korxona 2020 yil aprel oyida 50 nafar ayol bilan ish boshlangan. Shuningdek 2021 yilga kelib korxonada yangi 200ta ish o‘rni yaratilib ishchi xodimlar soni 300 nafarga yetdi. Fabrikada ishlaydigan ishchilarning 90 foizi ayol qizlardan tashkil topgan va ularning aksaryati yoshlari daftari, ayollar daftari, temir daftarlarda turuvchi mahalliy fuqarolardan iborat bo‘lgan. Hozirda bulardan 100 nafardan oshig‘ini ushbu daftarlardan chiqishga muvafaq bo‘lingan. Namangan viloyatida 2022-yil ayollar rahbarligidagi korxonalar soni 11127 tani tashkil etadi. 2023 yil yanvar- iyun oylarida aholi umumiylar daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingen daromadlarning ulushi 58,5% ni tashkil etadi. 2024-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra Namangan viloyati doimiy aholisi soni 3115,3 ming kishini tashkil etib shundan 49,2% ini ayollar tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichlar 2024-yil 30-oktabr holatiga ko‘ra viloyatda 748 nafar rahbar ayol faoliyat yuritmoqda.²



2-rasm. Ayollar rahbarligidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining viloyatlar bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi

2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risidagi Qonunga asosan 2022-yilda xotin-qizlarni kasbga o‘rgatish va bandligini ta’minlashga ko‘maklashadigan hamda

² <https://star.uz/lex.uz>

ularning muammolari bilan shug‘ullanadigan nodavlat notijorat tashkilotlariga 17,1 milliard so‘m miqdoridagi grant mablag‘lari ajratilganligi ma’lumot o‘rnida ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa:

Bugungi kunda ayollar tadbirkorligi nafaqat shaxsiy muvaffaqiyatga, balki butun jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Shu bois, ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va ularni qo‘llab-quvvatlash eng muhim vazifalardan biridir. Ayollar tadbirkorligi nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki jamiyat barqarorligini ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayol tadbirkorlar yangi ish o‘rinlarini yaratish, innovatsion yechimlarni taklif etish va oilaviy farovonlikni oshirishda katta rol o‘ynaydi. Ular xizmat ko‘rsatish, savdo, ta’lim, qishloq xo‘jaligi va raqamli texnologiyalar kabi turli sohalarda faoliyat yuritib, jamiyatning barcha qatlamlariga foyda keltirmoqda. Davlat va jamiyat tomonidan berilayotgan qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari – imtiyozli kreditlar, treninglar va biznes inkubatorlar – ayollar tadbirkorligini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. O‘z biznesini yo‘lga qo‘ymoqchi bo‘lgan ayollar uchun bu katta imkoniyatdir.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagি PF-87-son qaroriga asosan tadbirkor ayollarga ajratiladigan subsidiyalar miqdorini 7 million so‘mdan 10 million so‘mgacha oshirish ko‘zda tutilgan. <https://lex.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23sentyabrdagi “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-330-sonli qarori ijrosini ta’minalash. <https://lex.uz>
3. “ Yangi taraqqiyot davrida ayollarning jamiyatdagi o‘rnii”- Arzimatova I.M
4. “Ayollar tadbirkorligi nazariyasining takomillashuvi xususida”- Gulnoza Sharofiddinova
5. GEM Report. Women’s Entrepreneurship 2020/21: Thriving Through Crisis
6. Minniti, M. (2009) Gender issues in entrepreneurship. Foundations and Trends in Entrepreneurship.
7. O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi. Ayollar egalik qilayotgan firmalar ulushi. URL: <https://star.uz/lex.uz>
8. [www.ziyonet.uz, http://blockchain.community](http://blockchain.community)
9. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 46-moddasida“Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidir. <https://lex.uz>